

## "1- SINFLAR UCHUN DARSLIK VA O'QUVCHI MASHQ DAFTARINI AMALIYOTDA QO'LLASH"


**Mirxonova Zulfiya Hamidovna**

*Zarafshon shahar 5-umumiy ta'lim maktabining  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada 1-sinflar uchun darslik va mashq daftari, uni amaliyotda qanday yurutish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'z:** *Ta'lim, darslik, kitob, pedagog, o'qituvchi, A.Bahromov, ilmiy-uslubiy, psixologik, estetik, DTS, maktab, gigiyenik, sinf.*

Ma'lumki, insoniyat muayyan maqsadni ko'zlar ekan, ana shu maqsadga olib boruvchi, yetkazuvchi vositalarni ham aniqlab oladi. Ta'lim jarayonida ham muayyan maqsad belgilangan ekan, unga olib boruvchi usullar va vositalar izchil belgilab olinadi. Ana shu ta'lim maqsadiga eltuvchi vositalardan biri darsliklardir. Darslik tushunchasi ham ta'limning eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Bu tushunchada bir qancha ilmiy manbalarda muayyan istilohiy ma'nolar berilgan. Xususan, olim A.Bahromov "Maktab darsliklarining yangi avlodini yaratish mezonlari" maqolasida zamonaviy darslik va unga qo'yiladigan talablar haqida to'xtalar ekan, unga shunday izoh beradi: —Darslik – o'quvchilarning davlat ta'lim standartida va dasturda belgilab berilgan bilimlarni faol va ongli sur'atda o'zlashtirishlari uchun mo'ljallangan asosiy o'quv kitobi hisoblanadi. Shuningdek, "Pedagogika ensiklopediyasi" darslik va uning paydo bo'lishi, darsliklar tarixi haqida batafsil ma'lumot berilar ekan, uni shunday ta'riflaydi: —Darslik – davlat tomonidan tasdiqlangan DTS asosida muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy-uslubiy saviyada yozilgan o'quvchi va talabalar uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi". Bizningcha, bu istilohiy izohlar darslik va uning ta'limdagi ahamiyati va rolini ochib berish uchun kamdek. Shu bois bu tushunchaga DTSda berilgan izoh bilan tanishdik: —Darslik – davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri". Darhaqiqat, bu ta'rif darslikning ta'lim jarayonidagi mohiyatini nisbatan to'laroq ochib bergan. Jahon pedagogikasidan ma'lumki, ta'lim tizimining "ta'lim uchburchagi" degan tushuncha bo'lib, ular —DTS, o'qitish jarayoni va baholash hisoblanadi. Darslik esa ularning markazida joylashgan bo'lib, barchasiga uzviy ta'sir qiladi.



Bir soʻz bilan aytganda, DTS va oʻquv dasturida aks etgan taʼlim maqsadi va yoʻnalishiga mos boʻlgan mavzular asosida darslik yaratiladi, unda tarkib topgan savollar, topshiriqlar va mashqlar asosida muayyan mavzular oʻrgatiladi, oʻquvchilarda amaliy koʻnikmalar va malakalar shakllantiriladi. Umuman, darslik oʻqituvchi uchun dars mashgʻulotida oʻquvchilarga oʻrgatilishi, oʻzlashtirishi kerak boʻlgan BKMlarning minimum chegarasini belgilaydi, desak xato boʻlmaydi. Dars mashgʻulotini yanada boy, mazmunli qilib tashkil etish oʻqituvchining shaxsiy salohiyatiga, ishiga boʻlgan munosabatiga bogʻliq boʻladi. Bir soʻz bilan aytganda, DTS va oʻquv dasturida aks etgan taʼlim maqsadi va yoʻnalishiga mos boʻlgan, oʻquvchilarda fanga oid BKM va kompetensiyalari rivojlantirishga xizmat qiladigan, shu bilan birga, taʼlim sifatini baholash uchun ishlab chiqiladigan topshiriqlar uchun manba-asos boʻladigan pedagogik oʻquv materiali darslik hisoblanadi. Umumiy oʻrta taʼlim boshlangʻich taʼlim (I–IV sinflar), tayanch oʻrta taʼlim (V–IX sinflar) va oʻrta taʼlim (X–XI sinflar) kabi bosqichlarga ajratiladi. Maʼlumki, boshlangʻich sinflarda ibtidoiy nutqiy koʻnikmalar shakllantiriladi, rivojlantiriladi. Shu bois tayanch va oʻrta taʼlim bosqichlarining "Ona tili" darsliklarida keltirilgan, oʻquvchilarning BKMlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan mashq, topshiriq va savollarni tahlil qilib chiqib shunga amin boʻlamizki, ular asosan oʻquvchilarning matnni lingvistik tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

1- sinf darslarida darslikdan foydalanishning asosiy maqsadi oʻquvchilarga harf tanitish va shu orqali ravon va xatolarsiz oʻqish, tinglab tushunish, yozish va gapirish koʻnikmalarini shakllantirishdir. 1- sinf darsliklarda oʻquvchilarning eng ogʻriqli muammosi boʻlgan ogʻzaki javob beriladigan, ogʻzaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan sheʼrni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan. Ushbu mashqlarni bajarish oʻquvchini teran fikr yuritishga va nutqini goʻzal qilishga yordam beradi. Darsliklarda mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan ogʻzaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan taʼlim mazmuni ishlab chiqilgan.

1- sinf o'quvchi mashq daftari asosida uyushtiradigan yozuv daftarida o'quvchilar asosan grafik malakalarni egallaydilar.

Yozuv ko'nimalarini shakllantirish ham bevosita nutq hamda tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Shu tufayli yozuv daftari yozuv o'rgatish jarayonining davrlashtirishiga mos holda tuziladi. O'quvchilar tayyorlov davrining birinchi bosqichida yozuv chiziqlarini farqlash (asosiy yozuv chizig'i: (=); yordamchi yozuv chizig'i: (---//), harf elementlarini yozish, elementlar oralig'ini chamalash orqali ular orasida bir xilda masofa qoldirish, hoshiyalar ustidan chizishni mashq qilish orqali qo'lni yozuvga tayyorlash ishlarini bajaradilar. Ikkinchi bosqichda unli harflarning kichik va bosh shakllarini yozishni o'rganadilar. Asosiy davrda undosh harflarning kichik va bosh shakllarini, o'rganilgan unli va undoshlar bilan bo'g'in, so'z, gap yozishni mashq qiladilar. Bu davrda harflarning o'quvchi xotirasida to'g'ri foydalanish, tovushlarning so'z ma'nosini farqlashdagi vazifasini anglashlariga erishish, shular bilan bog'liq holda nutqni boyitish, fikrlash faoliyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Daftarda ta'lim beruvchi, o'rganuvchi - tekshiruvchi, tekshiruvchi xarakterdagi mashqlar berilgan. U bilan ishlashda lug'at ishiga doir, talaffuz mashqlari, og'zaki suhbat, hikoyalash, tuzilgan hikoyadan gapni, gapdan so'zni ajratish, so'zni bo'g'inlarga bo'lish, so'z yoki bo'g'indagi yozilishi o'rganiladigan harfni ajratish, bo'g'inlarni biriktirish, tuzilgan so'zlarni o'qish va yozish kabi ish turlari bajariladi. Yozuv daftarida o'quvchilar „Alifbe“ kitobida o'qigan tovush tarkibini bir butun holda gavdalanitira oladigan til birligini yozadilar. Daftarning yuqori qismida predmet yoki mazmunli rasmlar berilgan. Ayrim predmet rasmlari nomlarini ifodalovchi so'z nusxalari katakchalarga ajratib berilgan, ayrimlarida ajratilmagan, ulardagi tovush soni tahlil yo'li bilan aniqlagach, bolalarning o'zlari katakchalarga va bo'g'inlarga mustaqil ajratadilar. Ba'zi o'rinlarda rasm asosida tuzilgan gapning nusxasini o'quvchilarning o'zlari chizadilar. Nusxa asosida gapning yozilishini izohlaydilar. Predmet rasmi berilgan o'rinda shu predmet nomi - so'z bo'g'in- tovush jihatdan tahlil qilinadi, so'zdagi, tovushlar soni suhbat aniqlanadi va tasmachada belgilanadi. Masalan, quyidagicha tahlil o'tkaziladi. Rasmdagi predmet nomini ayting.



Shu soʻzni men talaffuz qilaman, siz unda nechta boʻgʻin borligini aniqlaysiz ( non – bir boʻgʻinli soʻz) Non soʻzini aytib, soʻz boshidagi va oxiridagi bir xil undoshni ayting (n)Nooon qaysi tovushni choʻzib aytdim? (o unli tovushni) Demak, soʻzda nechta tovush bor? ( 3 ta tovush bor)

Tasmachani nechta katakchada ajratish kerak? (3 ta katakchaga ajratish kerak) Undosh va unli tovushning oʻrnini boʻyang Yoki rasm asosida nusxasiga mos gap tuziladi. Buning uchun oʻquvchi shu nusxada mos savol beradi. Masalan: Qizchaga ism qoʻying . Noila nima kiydi... Shundan soʻng qisqacha gapning necha soʻzdan tuzilgani, boshlanishi, oxiriga nuqta, soʻroq, undov belgisi qoʻyilishi ustida tahlil ishlari oʻtkaziladi. Harfning yozma shakli uning bosma shakli bilan taqqoslash orqali tanishtiriladi. Bulardan tashqari, daftar sahifalarida yozishga oʻrgatish bilan bogʻliq taʼlimiy oʻyinlar ham berilgan. Bunda avvalo unli va undosh qoʻshib oʻqiladi, hosil boʻlgan soʻzlar (on, oʻn un, in.) oʻz qatoriga yoziladi. Harflarning ulanishiga alohida diqqat qaratiladi. Yozuv daftari asosida hosil qilinadigan imloviy bilimlar va diktant turlari “Yozuv daftari” oʻquvchilarning orfografik bilimlarini amaliy oʻzlashtirishlari uchun boy materiallarga ega.

Oʻqituvchi yozuv daftari bilan ishlashdan oldin “Bugun oʻquvchilarga nimani oʻrgataman?”, “Nima uchun oʻrgataman? Qanday oʻrgataman? degan mulohaza yuritish zarur. Aks holda yozuv darslari quruq yozish, nusxa koʻchirish darsi boʻlib qoladi. Yozuv daftari bilan ishlash jarayonida oʻquvchilarga beriladigan bilimlar uch xil yoʻnalishda boʻladi:

1. Grafik bilimlar.
2. Grammatik bilimlar.
3. Imloviy bilimlar.

Yozuv daftari asosida beriladigan grafik bilimlar: har bir harfning yozma kichik va bosh shaklini yakka holda yozish va oʻzidan keyingi va oldingi harflarga ulash koʻnikmasi yozishga oʻrgatish jarayonida hosil qilinadi. Grammatikadan amaliy bilimlar daftar sahifadagi til birliklarini elementlar tahlil qilish jarayonida shakllantiriladi. Fonetik va Grammatik bilimlar asosida esa imloviy malakalar shakllantiriladi. Toʻgʻri hosil qilingan grafik malakalar esa boshlngʻich sinf oʻquvchilarining imloni oʻzlashtirishlariga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Chunki yozish malakasini egallamagan oʻquvchida boshqa bilimlarni oʻzlashtirishga havas boʻlmaydi. Shu sababli har bir oʻquvchi avvalo yozuvning elementar talablariga eʼtibor berib, bolaga yozuvda ichki ehtiyoj, qiziqish hosil qilishi lozim. Aslida grafik Grammatik, imloviy bilimlar har paytda hosil qilinadigan, bir –biri bilan uzviy bogʻliq hodisalardir. Oʻqituvchi shuni nazarda tutib darsda uyushtiradigan ish turlarini izchil amalga oshirish lozim. Yozuv darslariga qoʻyidagi imloviy bilimlar hosil qilinadi: ayrim unliarning yozilishi ( a, o, u, i, oʻ, e), ayrim undoshlarning yozilishi, baʼzi bosh harf bilan yoziladigan soʻzlarni toʻgʻri yozish, gapda soʻzlarni alohida – alohida yozish, soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib yozish kabi.

Xulosa qilib aytganda, darslik va mashq daftarlari o'quv mashg'ulotlaridagi eng asosiy omil bo'lib ularsiz dars jarayonini tashkil etish mushkul. Darslik — muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy uslubiy saviyada yozilgan kitob; o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi. Darslik va mashq daftarlari ayniqsa boshlang'ich sinf, jumladan 1- sinflar uchun juda ham zarur vosita hisoblanadi. Aynan ushular yordamida o'quvchi bilim olishni boshlaydi, bilimlar egallab ularni mustahkamlaydi. Shu sababdan ham o'qituvchilar uchun 1- sinfga qadam qo'yib savod chiqarishni boshlagan o'quvchilar bilan ishlashda darslik va o'quvchi mashq daftarlari darsda tatbiq etish muhim vazifa hisoblanadi. Chunki aynan ushbu yo'llar o'quvchining kelajak bilimlarini belgilovchi jarayon hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining —Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3153714>.
2. "Ta'lim to'g'risidagi qonun. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. A.G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari.—T.: "O'qituvchi" 1992. 43-54.b.
4. Bahromov A.. Maktab darsliklarining yangi avlodini yaratish mezonlari. —Ta'lim taraqqiyoti||. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi axborotnomasi. 2001-yil 3-4-son 63-66-betlar.
5. K.Qosimova. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi" 1985. 4 – 10 – b.
6. X.G'ulomova. Ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ruza. – T.: 2003. 1 – 7 b.
4. "Science and Education" Scientific journal. September 2020/ Volume 1 / Issue 6
5. Pedagogika ensiklopediyasi. I jild. – T.: —O\_zbekiston milliy ensiklopediyasi|| Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 318 b.
6. Shihab Jimaa. The impact of assessment on students learning. //Procedia - Social and Behavioral Sciences 28 (2011) 718 – 721